Muxammadiyev Anzor Olimjonovich	1986	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	«Hudud gaz ta'minot» AJ direktori	Samarqand tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Tashov Mizrob Maxmudovich	1987	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	"Memor O'tkir Chorva" MChJ ta'sischi	Samarqand tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Yusupova Dilsara Davronovna	1975	Xalq demokratik partiyasi	16-maktab direktori	Samarqand shahri	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
51-SOCHAKIBOLO SAYLOV OKRUGI					
Abduazizova Gulshan Azimovna	1970	Ekologik partiya	18-maktab direktori	Toyloq tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
Ashurov Maxmud Shaxobovich	1982	Xalq demokratik partiyasi	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dekan o'rinbosari	Urgut tumani	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Muxammadiyev Dilshod Toshpulotovich	1981	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	«Zamonaviy new builder» MChJ direktori	Toyloq tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Saparova Dilshoda Adashevna	1977	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	8-maktab o'qituvchisi	Toyloq tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Sayfiddinova Muxiba Toshpulotovich	1980	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	"Agrobank" tuman filiali boshqaruvchisi vazifasini bajaruvchi	Samarqand shahri	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
52-TOYLOQ SAYLOV OKRUGI					
Boboqulov Asrorjon Abror o'g'li	1992	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari	Toyloq tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Eshonkulov Zoyir Isomkulovich	1980	Ekologik partiya	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi AGR bo'lim boshlig'i	Toyloq tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
Jabborova Zamira Toirovna	1962	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	14-maktab direktori	Toyloq tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Kadirov Anvar Sabirovich	1987	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	Viloyat injiniring kompaniyasi bo'lim boshlig'i	Toyloq tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Ruzmanova Roxila Usmanovna	1982	Xalq demokratik partiyasi	Samarqand davlat universiteti dotsenti	Toyloq tumani	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
53-BOG'IZOG'ON SAYLOV OKRUGI					
Baqoyev Odilxon Abduduyxonovich	1977	Ekologik partiya	Viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi shu'ba mudiri	Toyloq tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
Hojikulov Shuxratjon Baxronovich	1977	Xalq demokratik partiyasi	«Toyloq ipagi» MChJ ishchisi	Toyloq tumani	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Soxibov Axtamjon Fazliddinovich	1973	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	«Biznesni rivojlantirish banki» boshqaruvchi raisi o'rinbosari	Toyloq tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Umarova Habiba Ulmasovna	1971	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	Madaniyat mahallasi raisi	Toyloq tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Yuldashova Mutabar Abdumanonovna	1967	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	«Qo'shchinor» gazetasi muharriri	Toyloq tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
54-URGUT SAYLOV OKRUGI					
Begaliyev Zuxridin Sultonmurodovich	1986	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	"Mikrokreditbank" viloyat filiali boshqaruvchi raisi	Toyloq tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Ja'farova Nilufar Jaxongirovna	1972	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	Tuman tibbiyot birlashmasi bo'lim boshlig'i	Urgut tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Muxiddinova Badea Muslixiddinovna	1978	Xalq demokratik partiyasi	Samarqand davlat universiteti professori	Samarqand shahri	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Suvonova Qunduz Sadullayevna	1985	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	10-maktab direktori	Urgut tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Xudayarov Uktam Jurakulovich	1973	Ekologik partiya	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali kafedra mudiri	Samarqand shahri	Ekologik partiya viloyat kengashi
55-MIRZAQISHLOQ SAYLOV OKRUGI					
Halimov Iskandar Abdilmuqaddimovich	1989	Ekologik partiya	"Tasviriy oyna" viloyat ijodiy uyushmasi raisi	Urgut tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
Nabiyev Dilshod Kamolovich	1986	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	«Yoshlar kelajagimiz» jamg'armasi viloyat filiali direktori	Urgut tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Nozirov Rofe Zayniyevich	1963	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	Shodlik mahallasi raisi	Urgut tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Tilayova Mehribon Gadayevna	1978	Xalq demokratik partiyasi	Tuman tibbiyot birlashmasi vrachi	Urgut tumani	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Yarashev Quvondiq Safarovich	1975	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	Samarqand davlat universiteti Urgut filiali direktori	Urgut tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
56-TO'RTKO'L SAYLOV OKRUGI					
Jamolov Farrux Azimjon o'g'li	1993	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	Viloyat qurilish bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i	Toyloq tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Okbutayev Ximmat Kuchkarovich	1962	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi	Urgut tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Raxmatov Dilshod Xusanovich	1980	Xalq demokratik partiyasi	«Hamkorbank» Urgut filiali boshqaruvchisi	Samarqand shahri	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Suvanova Jumagul Rashidovna	1961	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	Samarqand davlat universiteti dotsenti	Samarqand shahri	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Xo'jayeva Feruza Baxronovna	1967	Ekologik partiya	101-maktab direktori	Urgut tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
57-BESHYOQ'OCH SAYLOV OKRUGI					
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	1982	Xalq demokratik partiyasi	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bo'lim boshlig'i	Samarqand shahri	Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi
Almasov Akbar Asrorkulovich	1982	Ekologik partiya	Tuman bandlikka ko'maklashish markazi bo'lim boshlig'i	Toyloq tumani	Ekologik partiya viloyat kengashi
Baymatov Boxadir Oblakulovich	1965	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi	Viloyat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi	Urgut tumani	"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi
Boboyeva Hilola Buriyevna	1977	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	59-MTT mudiri	Urgut tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Djankeldiyeva Ra'no Xursandovna	1975	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	Uzun mahallasi raisi	Urgut tumani	O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi viloyat kengashi
58-JOZMON SAYLOV OKRUGI					
Axmedov Nurzod Amrillovich	1988	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi	Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i	Samarqand tumani	"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi
Ergasheva Dilfuza Tirkashevna	1978	Xalq demokratik partiyasi	59-maktab direktori	Urgut tumani	Xalq demokratik partiyasi viloy

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda).

Amir Temur tomonidan asos solingan imperiya dunyoning yirik imperiyalari orasida alohida o'rin tutadi. Temur tarixda ulkan meros qoldirgan buyuk shaxslar toifasiga mansub bo'lib, uning shaxsiyati to'g'risida ko'plab tortishuvlar bo'lgan, bo'lyapti va bundan keyin ham davom etadi. Temur o'zini jahonga hukmronlikka munosib, deb hisoblagan noyob hukmdorlardan bo'lgan. Uning davrida Movarounnahr nafaqat jug'rofiy, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham markazga aylandi. Xitoy, Hindiston, Mo'g'uliston, Oltin O'rda, Oq O'rda, Iroq, Vizantiya va boshqa davlatlar hukmdorlari Amir Temurga o'z elchilarini yuborgan. Tashqi siyosat va diplomatiya sohasida ham Temurning ulkan iqtidor sohibi ekani ko'zga tashlanib, dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan yaqin diplomatik aloqalar o'rnatishga muvaffaq bo'lgan keng dunyoqarashli davlat arbobi, nozik siyosatchi va diplomat sifati to'liq namoyon bo'ldi.

Ulkan imperiyaning asoschisi qattiqqo'l, ammo juda aqlli va tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega edi. Ushbu fazilatlar tufayli u eng qiyin, o'ta murakkab siyosiy va favqulodda vaziyatlarda ham oqilona qarorlar qabul qila olgan. O'zining ana shunday noyob fazilatlar va iste'dodi tufayli u oddiy yollanma askardan dunyoga mashhur davlat arbobiga aylandi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tamoyillar asosida markazlashgan davlatni barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, Amir Temur va To'xtamish o'rnatadigan munosabatlar rus knyazliklari holatiga bevosita ta'sir ko'rsatardi va ko'plab Yevropa xalqlarining taqdiri ular o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq edi.

Amir Temur davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lgan donishmandlarning maslahatlariga amal qilib, tashabbuskor odamlarni yuqori baholagan. U shunday deydi: "Mening tajribam shuni ko'rsatdiki, azmu-shijoatli, ishbilarmon, hushyor, jasur va qo'rqmas odam tadbirsiz, loqayd odamlarga nisbatan afzalroqdir. Tajribaga ega bo'lgan bir kishi minglab odamlarni ish bilan ta'minlaydi. Bildimki, kimdir Buyuk Allohning yordami va uning qulining tadbiri bilan g'olib bo'lishi mumkin".

Sohibqiron hukmronligi davrida amirlarga to'lanadigan maosh ularning darajasiga qarab 1000 ta o'tning narxidan 10000 ta o'tning narxigacha belgilangan. Bevosita Amir Temurning avlodi bo'lgan amirlarga 12000 tagacha o'tning narxida maosh belgilangan hamda ularga viloyatlarni boshqarish huquqi berilgan. Hukmdorlik o'g'illari va nabiralarning ta'minoti ularning qarindoshlik darajasi va yoshiga bog'liq bo'lgan. Devonxon kotibi, nazoratchilarning maoshi amirlarning ish haqidagi 10 baravar ko'p bo'lishi belgilab qo'yilgan.

Amir Temur o'zining merosxo'ri bo'lgan birinchi o'g'li Muhammad Jahongirni viloyat hokimi etib tayinlab, unga 12 ming o'tliqning maoshiga teng ulush - ulufa berishni buyurdi. Ikkinchi o'g'li Umarshayxga viloyat bilan 10 ming o'tliqning maoshiga teng haq to'lagan. Uchinchi o'g'li Mironshohga viloyat berilishi bilan 9 ming o'tliqning maoshiga teng haq berilgan. To'rtinchi o'g'li Shohruxga viloyat berilishi bilan ming o'tliqning maoshi belgilangan. Boshqa odamlarga arpa yoki boshqa turdagi don mahsulotlari bilan maosh to'langan. Lekin maosh to'lashda asosiy o'lchov o'tning narxidan kelib chiqqan. Chunki bozorda o'tning narxi barqaror bo'lgan.

Temur qo'shinining asosiy qismi ko'chmanchilardan iborat bo'lganligi sababli ular ot, qo'y, tuya va boshqalar yordamida moddiy boylik qiymatini belgilashgan. Shundan kelib chiqib, jangchining maoshi u minib yurgan ot narxi bilan belgilangan. Piyoda askarlar va xizmatchilar (otliqlar, maxsus xizmatchilar, chodirlar) 100 dan 1000 tagacha ot narxida maosh olishgan. Ta'kidlash kerakki, piyodalilar qo'shinning o'z qismini tashkil etgan. Qo'shinning asosiy qismi tezkor harakat va katta tezlikni ta'minlaydigan otliq qo'shindan iborat edi.

Xizmat burchini o'tayotgan jangchi otining narx-

Iqtisodiy tafakkur sohibi



iga teng maosh olgan. Bahodirlarga esa 2 tadan 4 tagacha o'tning narxida maosh to'langan. O'nboshining maoshi oddiy jangchining maoshidan o'n baravar ko'p edi. Yuzboshining maoshi o'nboshining maoshining ikki baravari miqdorida belgilandi. Mingboshining maoshi yuzboshining maoshining uch baravari miqdorida tayinlangan.

Rag'batlantirish bilan bir qatorda, harbiy xizmatdagi kamchiliklari uchun jangchilarni moddiy javobgarlikka tortish choralarini ham qo'llanilgan. Masalan, agar askarlardan biri xizmat paytida xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, uning maoshi 1/10 miqdorida qisqartirilgan. Shuningdek, o'nboshi yuzboshining, yuzboshi mingboshining, mingboshi amir-ul-umaro (amirlarning amiri) ijazati bilan xizmati uchun ulufa - xizmat haqi olgan.

Amir Temurning asosiy intilishlari imperiyani kengaytirish hamda mustahkamlash, davlatni boshqarish, keng hududlarda osoyishtalikni saqlash, isyonkor va bo'syunmas ko'zg'olonchilarni tinchlantirish, tashqi dunyo bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga yo'naltirilgan edi. U davlat boshqaruvida iqtisodiy muammolarga ham katta e'tibor qaratdi. Zamonaviy makroiqtisodiy siyosat nazariyalardan bexabar bo'lsa-da, imperiyaning rivojlanishi va gullab-yashnashida, davlat poydevorini mustahkamlash, odamlarning turmush farovonligini oshirishda savdo-iqtisodiy aloqalar, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning roli va ahamiyatini aniq tushungan. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, saroylar va me'moriy yodgorliklarni qurish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, muzofotlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishga ahamiyat berdi.

Amir Temurning pul zarb etish siyosati alohida e'tiborga loyiq. Tangalar asosan ikkita qiymat ko'rinishida zarb qilingan: og'irli 6 gramga teng "miri" deb nomlangan tanganing to'rtidan bir qismi, ya'ni 1,5 gram kumush edi. "Miri" atamasi Temurning "Amir" unvonidan kelib chiqqan. Iste'mol tovarlari savdosida yuqorida qayd etilgan ikkita nominalga qo'shimcha ravishda mayda chakana savdo uchun mis tangalar ishlatilgan. Bu tangalar Amir Temur nomi bilan zarb qilingan.

Mutaxassislar tangalar Astorobod, Astara, Boku, Basra, Bog'dod, Hiro, Bomiyon, Darband, Yazd, Isfaxon, Kirmon, Kushon, Qum, Mardin, Mahmudobod, Mashhad, Sava, Samarqand, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Shebankara, Sherzod kabi 40 dan ziyod shahardagi zarbxonalarda tayyorlanganini aniqlashdi.

Ushbu tangalar nafaqat Amir Temur va temuriylar davlati uchun savdo-sotiqni ta'minlagan, balki Sharq mamlakatlaridan tashqarida ham muomalada bo'lgan.

Amir Temur nomi bilan zarb qilingan tangalardagi gerb uchta mayda halqalardan iborat ekanligi aniqlangan. Ispaniya qiroli elchisi Klavixoning so'zlariga ko'ra, bu belgi Amir Temur uchta qit'aning hukmdori bo'lganini anglatgan. Tangalar geometrik go'zalligi va ajoyib dizayni bilan ajralib turgan.

Temur davlatida sug'oriladigan dehqonchilik bilan birga dasht ko'chmanchi va yaylov chorvachilik, qo'ychilik, otchilik va ovchilik rivojlandi. Qizilqumning keng hududlarida tuyalar boqilgan. Soliq imtiyozlari berish, buzilgan sug'orish tizimlarini tiklash yoki yangilarini qurish va hokazolar orqali aholining faol iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyati davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlangan. Muhimi, aholining iqtisodiy faolligi daromadlarning o'sishi va uning sotib olish qobiliyatiga, uy-joy sharoitlarini yaxshilash istagiga aylandi. Bozorlar Buyuk Ipak yo'li karvonlari tomonidan boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan boyildi. Shahar aholisi va qishloq aholisining yaqin ittifoq va iqtisodiy hamkorligi, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va karvon savdosining tez va o'zaro mutanosib rivojlanishi natijasida Temur imperiyasining qudrati va xalq farovonligining o'sishini ta'minlaydigan o'ziga xos iqtisodiy salohiyat vujudga keldi.

Temur imperiyasining harbiy qudrati mislsiz edi. Unga qarshilik ko'rsatishga hech kim jur'at eta olmad va bu Sohibqironga tashqi dunyoga o'z shartlarini qo'yishga imkon berdi. Mavjud davlatlarning aksariyati - Hindiston, Misr, Oltin O'rda, Kavkazorti, Turkiyaga amalga oshirgan harbiy yurishi paytida mamlakatlari hukmdorlari Temur bilan o'zaro do'stlik munosabatlarini o'rnatishga harakat qilishdi.

Sharq va G'arbni bog'laydigan eng muhim savdo yo'llari Movarounnahr hududidan o'tdi. Natijada butun Osiyo qit'asining ko'plab davlatlari va Yevropaning muhim qismi Temur imperiyasining siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy aloqalari va manfaatlari uchun xizmat qilishga jalb qilindi. Movarounnahrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadal rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi uchun juda qulay vaziyat yaratildi.

Masalan, Buxoro, Marvdagi to'quv korxonalari - "bayuttiroz"larda oddiy fuqarolar, chorikorlar, asirlar, qullar yollanma ishchi sifatida ishlay boshladi. Samarqandda qurol-yarog' ishlab chiqarish korxonalari vujudga keldi. Davlatning yirik ustaxonalari

ishlab chiqarish bo'yicha oilaviy kooperativlar tashkili qo'llanilgan dastlabki kapitalistik institutlarni paydo qildi.

Samarqanddagi qurilish-bunyodkorlik ishlari, hunarmandchilik va savdovning gullab-yashnagani bu zaminda rivojlangan ijtimoiy hayot mavjud bo'lganini aks ettiradi. Temur davrida ham binolarning zichligi, ko'p qavatli uylarning mavjudligi, uylarning katta qismida hovlilarning bo'lgani, javjum do'konlar va ustaxonalar, ko'chalarning torligi kishi diqqatini tortadi. Shaharning boy aholisi o'z yerlarining bir qismini daromad olish uchun do'konlar va ustaxonalar uchun ajratgan, shubhasiz, qimmatbaho dekoratsiya va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan xonalarning mavjudligi uy egalari jamiyatdagi mavqeyini belgilab bergan.

Amir Temur va temuriylar davrida qishloq xo'jaligi sezilarli o'sdi. Mo'g'ullar tomonidan vayron bo'lgan sug'orish inshootlarini tiklash va ekin maydonlarini kengaytirish choralarini ko'rildi. Davlatning puxta o'ylanigan soliq siyosati ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirdi va qishloq xo'jaligining rivojlanishi, yangi yerlarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratdi.

XV asr va XVI asrning birinchi choragida iqtisodiy hayot hunarmandchilik va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Tovar-pul munosabatlariga shaharlarning va qisman qishloq aholisining keng qatlamlari jalb qilindi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, temuriylar davridan oldin va undan keyin, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishigacha tovar-pul munosabatlari ushbu davrdagi kabi rivojlanmagan. Amir Temur va temuriylar davrida turli davlatlar bilan savdo aloqalari kengaydi.

Movarounnahr hamda Xurosonning katta-kichik shaharlarida savdo, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi natijasida aholining ijtimoiy va sanoat tabaqalanishi yanada chuqurlashdi. Yangi bozorlar, karvonsaroylar tashkil etildi, ixtisoslashtirilgan savdo tarmoqlari, ustaxonalar va do'konlar kengaytirildi. Yog'och, charam, zargarlik buyumlari, qog'oz va sopol buyumlar, yarim ipak va ipak matolar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularni qayta ishlash turlarining kengayishi, ortib borayotgan ichki va tashqi ehtiyojlar ta'siri ostida Markaziy Osiyo Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi.

Zodagonlar shaharni tashkil etuvchi asosiy aholi bo'lib, shahar madaniyatining rivojlanishini belgilab berdi. Fuqarolar farovonligining oshishi san'at va hunarmandchilikning gullab-yashnashiga sabab bo'lgan.

Boyliqning o'sishi uchun iqtisodiy asos bu yer egalari olinadigan ijara haqi edi. Amir Temur davrida Zarafshon vodiysida o'zlashtirilgan yerlarning maydoni deyarli XIX asr oxirigacha saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtdagi har bir zamonaviy qishloqda tepaliklar, ya'ni o'rta asrlarning qudratli binolari qoldiqlari mavjud. G'alla savdosi muhim o'rin egalardi, ammo bu yagona daromad manbai emasdi. Zarafshon vodiysida chorvachilik, bog'dorchilik va uzumchilik rivojlandi. Qishloqlarda ham daromad keltiradigan un tegirmonlari, terini qayta ishlash, yog'ochni qayta ishlash kabi hunarmandchiliklar paydo bo'ldi.

Fuqarolarning uylari me'morlar rahbarligi ostida mohir quruvchilar tomonidan qurilgan. Shaharning boy aholisi ipak matolardan tikilgan qimmatbaho kiyimlar kiyishgan, ularning kiyimlari kumush va oltindan yasalgan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.

Samarqand, Buxoro, Toshkent, Marg'ilon kabi yirik shaharlarning iqtisodiy tarkibi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini bozorda erkin sotishgan.

Murod MUHAMMEDOV,
Mamayunus PARDAYEV,
Samisi professorlari.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"SIYOB DEHQON BOZORI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

"Siyob dehqon bozori" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarning navbatdan tashqari yigilishi 2024-yil 30-sentabr kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriyati binosida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

- Jamiyatning 2024-yil boshidan 1-sentabrgacha bo'lgan davrdagi moliyaviy faoliyati natijalari, auditorlik tekshiruv va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;
- "Siyob dehqon bozori" MCHJ ishchi-xizmatchilari shtat jadvalini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- Jamiyatning ishchi va xizmatchilari ish haqidagi bo'lgan to'lov muddati o'tgan (5-7-yillik) qarzdorliklarni "Siyob dehqon bozori" MCHJ daromadiga o'tkazish;
- "Siyob dehqon bozori" MCHJ direktorini saylash;
- Boshqa masalalar.

Manzil: Samarqand shahri, Bibixonim (8-mart) ko'chasi, 8-uy.

Mo'ljal: "Siyob dehqon bozori" MCHJ ma'muriyati.

Murojaat uchun telefon: +99866-235-03-83.

JAMIYAT MA'MURIYATI.

BEKOR QILINADI

Nurobod tumanidagi "DIYORBEG AB-DIXOLOV CHORVASI" fermer xo'jaligining (STIR: 305135570) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasida marhum Negmatov Soli Zakirovichga (1978-yil 27-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrliloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Raxmatova Iroda Axmatovna (2024-yil 11-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani

Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safonovich notarial idorasida marhum Dusbekov Ziyadulla Uraqovichga (2023-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum Shirinboyeva Zulpiya Jo'rayevnaga (2022-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishtixon shaharchasi Ishtixon ko'chasi, 20-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov

Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Nabiyev Habibga (2018-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Registon ansambli ta'mirlash va undan foydalanish direksiyasi jamoasi gid-ekskursovodlar bo'limi boshlig'i Asiddin Safarovga otasi **Abduhalim SAFAROV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Samarqand viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Qashqadaryo viloyat kengashi raisi maslahatchisi vazifasida ishlab kelgan O'zbekiston kasaba uyushmalari faxriysi **Eson RAJABOV**ning vafoti munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Yoshlarimiz badiiy asar mutolaasi orqali o'z asliyati – tafakkuri va zehniyatini nafaqat hayotiy, ma'naviy, tarixiy, falsafiy, mantiqiy va estetik ilmlar bilan boyitadi, balki imloviy, ishoraviy va uslubiy savodxonlik saviyasini ham takomillashtirib boradi. Bunda badiiy asarning mazmuni birlamchi o'rinda tursa, undagi xatosiz, mukammal matn tuzilmasi ikkilamchi xarakter kasb etadi. Aniqliq, asar matnida mazmun va shakl mutanosibligi lingvopoetik vazifa bajaradi. Kitobxonlik o'quvchi ongiga so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, grammatik qonuniyatlarini, lingvistik kombinatsiyalarini muhlaydi.

Badiiy asar mutolaasi savodxonlik saviyasi demakdir

Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi asnosida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Natijada o'z samarasini bera oladigan tanlov va imtihonlar vujudga keldi. Xususan, O'zbekiston farzandlari "Yosh kitobxon" loyihasida ona tili va adabiyot fanidan joriy qilingan milliy sertifikat imtihonlarida ishtirok etish uchun o'zbek va jahon adabiyotining noyob durdonalarini o'qish, mustaqil mushohada etish ustida qizg'in ish olib bora boshladi. Bu loyiha va sertifikatlash tizimi jamiyatimizda yangi bir kitobxonlik to'liqini vujudga keltirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ammo "Yosh kitobxon" tanlovi ishtirokchilariga ona tili va adabiyot fanidan milliy sertifikat talabgorlariga o'qish uchun tavsiya etilgan badiiy asarlarning lotin yozuvidagi variantlari yozma savodxonlik talablariga to'liq javob bera oladimi?

Toshkent shahridagi "Ilm, ziyo, zakovat" nashriyatida 2019-yilda chop etilgan O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romaniga ushbu savol ostida e'tibor qaratsak.

Kitobni qo'lga olishingiz bilan noan'anaviy holatga ko'zingiz tushadi. Har bir asar muqaddimasida beriladigan annotatsiya (asar mazmuni haqida qisqacha mulohaza) o'rinda bu nashrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorining mazmuni sharhlangan va noan'anaviy annotatsiya nihoyasida quyidagi fikr qayd etilgan: "Ushbu nashrning o'ziga xos jihatlardan biri shundaki, bu nashri hozirgi o'zbek tilining imlo qoidalarga to'liq moslashgan shaklda berildi".

Muxtasargina shu qaydlarning o'zidayoq ikki o'rinda xatoga yo'l qo'yilgan, ya'ni kompleks so'zida chiziqcha va nashri so'zida "i" harfi ortiqcha qo'llanilgan.

Asarning dastlabki sahifalarini ko'zdan kechirsangiz, "hozirgi o'zbek tilining imlo qoidalarga to'liq moslashgan shaklda berildi" mazmunidagi jumlaning aksiga guvoh bo'lasiz. Romandagi 3- va 4-sahifalarning o'zida 9 ta ishoraviy, 4 ta imloviy va 4 ta shevaga oid so'zlarning izohlanmaganligi bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yilgan.

Ishoraviy xatolar quyidagilar:

- 1) "Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku" jumlasida "axir" kirish so'zidan so'ng vergul qo'yilmagan;
- 2) "Eski dardi yana qo'zg'adi shekilli" gapida "shekilli" kirish so'zidan oldin vergul ishlatilmagan;
- 3) "To'rt yildirki, ahvol shu" jumlasida ega (ahvol) va ot (shu) kesim orasidagi tire unutilgan;
- 4) "Xo'p antiqa asboblari o'ylab chiqaribdimi, baraka topgurlar!" Ushbu gapda ega (baraka topgurlar) dan oldin vergul ortiqcha ishlatilgan hamda so'roq gap nihoyasida so'roq belgisi qo'yilmagan;
- 5) "... xola, - dedi nihoyat -

O'tqopchangizda tosh bor". Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda muallif gapining tugallangan qismi (nihoyat)da vergul tejab qoling; 6) "Operatsiya qilish kerak, xola - dedi do'xtir - boshqa iloji yo'q". Ushbu ko'chirma gapli qo'shma gapdagi ko'chirma gapning dastlabki tugallanishi (xola)da va muallif gapining nihoyalanishi (do'xtir)da vergullar qo'yilmagan; 7) "Boring ana tig'ning tagidan omon-esson qutilib chiqdi ham..." Bu to'liqsiz gapdagi xitob mazmunidagidek kirish so'z (boring)dan so'ng vergul qo'llanilmagan.

Asarning boshqa qismlariga nisbatan muqaddimadagi 3- va 4-sahifalarda xatolar ko'p uchraydi, ammo yuqoridagi kabi oddiy e'tiborsizlik natijasida paydo bo'lgan xatolikka romanning nihoyasigacha deyarli har betda mavjud. Bu kabi xato va kamchiliklar aynan shu nashriyot tomonidan chop etilgan boshqa asarlar matnida ham uchraydi. Masalan, 2020-yilda chop etilgan Chingiz Aytmatovning "Sarvqomat dilbarim" qissasiga nazar solsangiz, yuqoridagi kabi imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarning davomiga duch kelasiz.

Biz ushbu tanqidiy qarash orqali kimningdir mehnatini yerga urish, shaxsiy adovat yoki xusumatni namoyon qilishdan yiroqimiz. Faqat buyuk jaded namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tanqid - saralamoqdir" degan fikriga hamohanglikda ish tutishni bugunning dolzarb masalalaridan biri deb hisoblaymiz.

Maqsad shuki, mukammal tahrirlanmagan holda nodir asarlarni chop etish badiiy salmoqli, jozibador matnli asarlarga nisbatan kitobxonlarga salbiy taassurot uyg'otmasin, ularni mutolaa qilishga tutinganlarning savodxonlik saviyasini tushirishga xizmat qilmasin.

Zero, badiiy asarlarni mutolaa etish o'quvchi ongida nafaqat fabula (badiiy asar g'oyasi va mazmunining skeleti)ni, balki minglab, millionlab so'zlarning shakli va ma'nosining mujassamlashishiga xizmat qiladi. Shu orqali o'quvchida so'z boyligi, falsafiy dunyoqarashi, bayon qilish ko'nikmasi oshishi bilan birga tilning grammatik qurilishiga oid bilim va tajriba ham shakllana boradi. Badiiylik, mantiqiylik, falsafiylik, ijodiylik va so'z boyligi, albatta, lingvopoetik jihatdan mukammal bo'lgan matn orqali kitobxon asiyatida shakllanadi. Bunda o'zbek tilining asosiy imlo qoidalari va lingvistik me'yorlariga qat'iy rioya qilish har bir noshir va nashriyot oldida turgan eng dolzarb burchdir.

K. QARSHIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

O'zgarishni o'zimizdan boshlasak-chi?

Olimlar kelajakda O'zbekistonni suv tanqisligi, qurg'oqchilik muammosi qiyinlashini bashorat qilyapti. Orol dengizi qurib bo'lganiga ancha bo'ldi, endi uning o'rnida paydo bo'lgan tuz va qumlar shamol bilan uchib kelayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Mutaxassislar yer osti suvlarining ham ancha pasayib ketganini aytishmoqda. Xo'sh, suv tanqisligi muammosining kelib chiqishiga sabab nima?

Avvallari keksalarimiz "Dengiz oldida yashasang ham suvni teja", der edi. Biz bugun ichimlik suvida tomorqamizni sug'oryapmiz, hovlimizga suv sepyapmiz, mashina yuvaymiz va hokazo. Suvga bo'lgan munosabatimiz shunchalar yomonki, ba'zida qo'l yuvish uchun jo'mrakni boricha ochib, uni behudaga isrof qilyapmiz.

- Ikki kun shaharda ichimlik suvini o'chirishganida, usiz hech ish qilolmasligimni bildim, - deydi tanishlarimdan biri. - Suv bor payti uni istaganimcha ochib, me'yoridan ortiq ishlatar ekanman. O'zimning loqaydligimdan uyalib ketdim. Suvning borida qadriga yetish kerak ekan.

Ba'zida suv quvurlarini ta'mirlash uchun shaharda bir-ikki kunga suvni o'chirishsa, odamlar suvning har bir tomchisini isrof qilmasdan ishlatadi. Ichimlik suvi berilgach, ko'pchilik yana suvni tejashni unutadi.

Aslida har bir tabiat in'omini isrof qilmasdan ishlatish o'lganiga kerak. Bolalikda olingan ko'nikma insonga hayoti davomida qo'l keladi.

Yevropa davlatlari maktablarida bolalarga suvni teja, uning har bir tomchisini qadrlash haqida darslar o'tilar ekan. Shuning uchun ular ekin yerlarida allaqachon tomchilatib, yomg'ir-



latib sug'orishni yo'lga qo'ygan. Hatto ekinzorlar "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyasi asosida, masofadan turib boshqariladi. Qachon yer suvsizlanasa, qurilmaga bu haqda xabar keladi. Fermer masofadan sug'orish haqida buyruq beradi. Bizda esa haligacha paxta, bug'doy va boshqa ekin maydonlari eski usulda - suvni ariqlarda oqizib sug'oriladi.

Yurtimizga suv tanqisligi muammosi xavf solayotgan bir paytda na ichimlik suvini, na oqova suvlarni tejashni o'ylayapmiz. Hatto suvni tejashni bolalarimizga ham o'rgatayotganimiz yo'q.

Nafaqat suvni qadsiz qildik, balki tabiatga ham yomon munosabatda bo'ldik. Qanchadan-qancha daraxtlarni kesdik, yashil tabiatni payhon qildik. Qishloq odamlari tomorqasiga mevali daraxt ko'chatlari ekmay qo'ydilar. Ilgari odamlar uyining atrofiga tol, terak kabi manzarali daraxtlar ekishardi. Ko'chadan o'tayotganlar soya-salqin havodan ko'ngli ko'tarilib, daraxtlarni ekan odamning otasiga rahmat aytib ketardi. Endi esa odamlar hovlisiga manzarali daraxtlar ekishni istamayapti. Sababi, kuz faslida ularning bargini supurib tozalash qiyin emish.

Atrof-muhitni iflos qilish bo'yicha ham mamlakatlar reytingini tuzib chiqishsa, birinchi o'rinni olsak kerak. Haligacha bo'shagan yelim idish, ovqat qoldiq'i, qog'oz, ishlatilgan salfetka kabi chiqindilarni ba'zi odamlar

Professor Jo'raqul Eshnazarovni umrini ezgu ishlarga sarflagan, jismoniy madaniyat va sport sohasi rivojiga katta hissa qo'shib, ustozlik maqomiga erishgan inson sifatida taniymiz.

Sportchilarning jonkuyar ustozisi

J. Eshnazarov 1945-yilda Urgut tumanidagi Jartepa qo'rg'onida tavallud topdi. Qishloq maktabini a'lo baholarga bitirgach, o'qituvchi yetishmagani bois o'zi o'qigan maktabda bolalarga dars bera boshladi. Ko'p o'tmay, uni harbiy xizmatga chaqirishdi. Harbiy xizmatdan so'ng "Zarafshon" jamoa xo'jaligi yoshlar qo'mitasi kotibi lavozimida faoliyatini davom ettirdi.

1968-yilda J. Eshnazarov jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi bo'lish niyatida Samarqand davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdi. Institutni tamomlab, jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchilik qila boshladi. 1973-1976-yillarda Toshkent davlat pedagogika institutining aspiranturasida tahsil oldi va ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanib, nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Qator yillar Samarqand davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat fakultetida o'qituvchi, kafedra mudiri, dekan, institut prorektori lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Jo'raqul Eshnazarovning mamlakatimizda sport sohasini rivojlantirish, sport mutaxassislarini tayyorlashdagi xizmati katta. Birgina 2018-yilda Indoneziyaning Jakarta va Palambang shaharlarida bo'lib o'tgan XVIII yozgi Osiyo o'yinlarida Samarqand davlat universitetining 10 nafar sportchi talabarlari ishtirok etib, 3 ta kumush va 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Shuningdek, jahon chempionati musobaqalarida 4 ta oltin, 4 ta kumush, 2 ta bronza medallariga va Osiyo chempionati

Yonimizdagi odamlar



musobaqalarida 5 ta oltin, 4 ta kumush va 4 ta bronza medallariga hamda O'zbekiston chempionatlarida 53 ta oltin, 9 ta kumush va 4 ta bronza medallariga ega bo'ldilar.

Taniqli olim J. Eshnazarov tomonidan nashr etilgan darsliklar asosida respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining jismoniy madaniyat fakultetlari talabalariga dars berib kelinmoqda.

Professor 30 dan ortiq o'quv qo'llanma, 60 dan ziyod uslubiy qo'llanma, 150 dan ortiq ilmiy maqola muallifidir.

Ustoz bugun O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Fidoyi olim, ijodkor ustoz Jo'raqul Eshnazarovni tabarruk 80 yoshi bilan tabriklab, u kishiga sihat-salomatlik, uzoq umr tilaymiz. Yana uzoq yillar O'zbekiston fani ravnaqiga samarali hissa qo'shishlarini istaymiz.

Abdumajid ABDUMANNOTOV,
Farida ESHNAZAROVA,
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsentlari.

Mulohaza uchun mavzu

istalgan joyga tashlab ketadi. Shaharni-ku, mayli, har kuni obodonlashtirish xodimlari supurib-sidirib, chiqindidan tozalaydi. Dam olish uchun tog'li hududlarga borsangiz, ta'bingiz xira bo'ladi. Sababi, bugun har bir archa daraxtning tagiga chiqindi tashlangan, toza joy topish qiyin. O'tgan yil Zomin tog'iga dam olishga borganimda bunga guvoh bo'lgandim. Odamlar o'zlarini bilan toqqa olib chiqqan yeguliklarining qoldiq'ini pastga olib tushmaydi, qayerda o'tirgan bo'lsa, shu yerga tashlab ketaveradi. Shu sababli tog'li hududlar ham chiqindilarga to'lib bo'ldi.

Yoshligimizda qishloq joylardagi xonadonlardan chiqindi chiqmasdi. Hozir qishloqlarga ham chiqindi tashish mashinalari keladigan bo'ldi.

- Hozirgilarga hayronman, nimani chiqindiga tashlashadi, - deydi onam. - Po'choqlarni mollarga, ovqat qoldiqlarini mushuk va tovuqlarga, suyaklarni itga beraman. Yoqiladigan narsalarni tandirni qizdirishda yoqib yuboraman. Hatto, mol go'ngini o'g'it sifatida yerga ishlataman. Deyarli hech narsa chiqitga chiqmaydi.

Bugun qishloqlarda hamma ham bunday tutimli ro'z'or qilmaydi. Shuning uchun ham chiqindi tashiydigan mashinalariga ehtiyoj tug'illmoqda.

O'zimiz ona tabiatga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lyapmiz. Ammo toza, soya-salqin, zilol suvli joylarda yashashni, dam olishni istaymiz. Xorijning kurort joylarini orzu qilamiz. Aslida o'zimizda ham bahavo joylar bo'lgan. Hozir ham bunday joylarni tashkil qilsak bo'ladi. Buning uchun o'zimizni o'zgartirishimiz kerak. Odamlar o'zgarishni avvalo, o'zidan boshlasa, bizga berilgan har bir ne'matning qadriga yetilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Qaniydi, tilimiz bilan dilimiz bir bo'lsa-yu shu o'qiganlarimizga bugundan amal qilsak. Ishxonada ham, uyda ham suvni tejasak, tabiatni asrab-avaylasak, chiqindilarni belgilangan joyga tashlasak va bundan bolalarimiz o'rnak olsa degandim. Buning uchun ko'p harakat qilish yoki ko'p kitob o'qish shart emas. Faqat farosatli bo'lish kerak, xolos...

Xurshida ERNAZAROVA.

Kulrang paypoq

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, katta paypoq fabrikasi bo'lgan ekan.

Undan har kuni ming-minglab har xil rangli paypoqlar to'qib chiqarilgan ekan. Qop-qora paypoqlar ham qator bo'lib chiqib, do'konlar sari yo'l olarkanlar. Kunlardan bir kuni dastgohdagi bo'yoq tugab, oxirgi paypoqqa siyoh yetmay qolibdi. Natijada uning rangi hamma-nikidek qop-qora emas, kulrang bo'lib chiqibdi. Do'konda hamma xaridorlar qora paypoqlarni talashib olib ketibdilar. Kulrang paypoqni esa "rangi past" deb, hech kim olishni istamaydi. U "Nega mening rangimni bunaqa qilib qo'yishdi-ya?" deb juda xunob bo'libdi.

Shunda bir badavlat kishi kelib:

"Shu paypoq menga mos ekan", - debdi-da, uni xarid qilibdi. Badavlat odamning kiyimlari va poyabzallari rosa ko'p bo'lib, paypoq tanlashda qiyinlar ekan. Chunki qora tuffliga qora, oq tufflisiga oq, ko'kiga ko'k paypoq kerak bo'larkan-da. "Har bir noxushlikda bir xayr bor" deganlaridek, kulrang paypoq ularning har biriga mos tushaverar ekan.

Shunday qilib, kulrang paypoq sohibining eng suyuqli kiyimiga aylanibdi. Barcha tuffillar, shimlar u bilan do'st tutinibdi. Sohibi uni barcha to'y va bayramlarga kiyib boradigan bo'libdi. Uning bu omadiga boshqa rangli paypoqlarning ham havasi, ham hasadi kelarkan. Shu bois unga rangsizlik, taqldichilik va yana qandaydir boshqa allambalo ayblarni yopishtirmoqchi bo'larkan. Ammo uning eng asosiy fazilati - boshqalarga o'xshamaganligida ekanligini bilmas ekan.

Xudoyberdi KOMILOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 726 nusxada chop etildi. Buyurtma 492. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

A.ISMOILZODA.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 17720101667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda